



XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 9-avgust

VI-81-76-11-160-K/24

Toshloq tumani

2024-yil 2-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdag'i "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 8-fevraldag'i "Mahalliy budjet mablag'ları sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi IV-76-17-11-160-K/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 81-bandiga asosan 2024-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i J.Qurbanovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 8-fevraldag'i "Mahalliy budjet mablag'ları sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi IV-76-17-11-160-K/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 81-bandiga asosan 2024-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i J.Qurbanovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

- 2024-yil 2-chorak yakuni bo'yicha tashabbusli budjetlashtirish natijalari yuzasidan ma'lumot 1-ilovaga muvofiq;

- 2024-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida ma’lumot 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Qurbonov), tuman hokimligi axborot xizmati (R.Mamajonov) Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq budget” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Djo‘rboev), ijrosini ta’minalash moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokiminining birinchi o‘rinbosari (K.Umarov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



DJURABAYEV
ABDUKAXXOR
ABDUVAXIDOVICH

Xalq deputatlari Toshloq tumani
 Kengashining
 2024-yil 9-avgustdag'i
 VI-81-76-11-160-K/24 -son qaroriga
 1-ilova

Toshloq tumanida Tashabbusli budjet loyihasining 2024 yildagi 1-mavsumining 2-chorak yakuni bo'yicha Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi hisobidan loyihalarни moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida

MA'LUMOT

2024-yil 1-iyul

| T/r | Ko'rsatkich nomi | Summa (ming so'm) |
|------|--|--------------------|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | 580 926.5 |
| | Shundan avvalgi mavsumlarda g'olib bo'lgan loyihalar uchun ajratilishi lozim bo'lgan, qayta taqsimlanmagan mablag' | |
| 2. | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag' | 3 834 000.0 |
| 2.1 | Oldingi mavsumlardan iqtisod qilingan mablag' | 105 745.2 |
| 3. | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag' | 975 129.5 |
| 3.1. | Bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag' | 224 695,0 |
| 3.2. | Hisobvaraqlardagi qoldiq | 750 434.5 |
| 4. | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'a | 3 545 542.9 |

| T/r | Tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | Ko'rsatkichlar | | |
|-----|---|-----------------------------------|----------------|-----------|--------------------|
| | | | o'chov birligi | miqdori | sarflangan mablag' |
| | Jami | 11 | X | 11 | 224 695,0 |
| 1. | Hududiy ichki yo'llar | 1 | umumiylig'i | 2,7 | 12 912 |
| 2. | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash | 7 | soni | 7 | 178 187,0 |
| 3. | Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 0 | soni | 0 | |
| 4. | Sog'lijni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 2 | soni | 2 | 32 329,0 |
| 5. | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | 0 | soni | 0 | |
| 6. | Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash | 0 | umumiylig'i | 0 | |

| | | | | | |
|----|---|---|----------------|---|---------|
| 7. | Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish tadbirlari | 1 | chiroqlar soni | 1 | 1 268,0 |
| 8. | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish) | 0 | tadbirlar soni | 0 | |
| 9. | Boshqa tadbirlar | 0 | soni | 0 | |

Xalq deputatlari Toshloq tumani Kengashining
 2024-yil 9-avgustdag'i
 VI-81-76-11-160-K/24 -son qaroriga
 2-ilova

**Toshloq tumanida Tashabbusli budget loyihasining 2024 yildagi 1-mavsumining 2-chorak yakuni bo'yicha Fuqarolar tashabbusi
 jamg'armasi hisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida**

MA'LUMOT

| T/r | Loyihaning xos raqami (ID) | Loyihaning qisqacha mazmuni (sohasi) | Loyihaning moliyalashtirilishi (ming so'm) | | | | | |
|-------------|----------------------------|--|--|--|--|--------------------|---|----------------|
| | | | Moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraq | Tashabbuskor tomonidan kiritilgan loyihaning dastlabki qiymati | Loyihani amalga oshirishdagi aniqlangan qiymati* | Ajratilgan mablag' | Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag' | Qoldiq mablag' |
| Jami | | X | X | | | | | |
| 1 | 032299154011 | Bo'ston ko'chasini 2700 m ichki yo'llarni asfalt (sahag'allashmagan qismini shag'allashtirish) yotqizish ishlari amalga oshirish | 401722860302277 045204118001 | 1 360 000.0 | 1 215 000 | 65 851.0 | 12 912.0 | |
| 2 | 032318352011 | Toshloq tuman Sadda MFYda joylashgan 22-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabini mukammal ta'mirlash va 10 Kvtlik Quyosh panellarini o'rnatish | 401722860302277 096600056001 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 851.0 | 5 678.0 | |

| | | | | | | | | |
|---|--------------|--|---------------------------------|-------------|-------------|----------|----------|--|
| 3 | 032322195011 | Toshloq MTTBga qarashli 5-o`rta umumta`lim maktabiga 240-o`rinli qo`shimcha bino qurish | 401722860302277 092100072023 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 851.0 | 6 013.0 | |
| 4 | 032315636011 | Toshloq tumani 15-umumiy o`rta ta`lim maktabiga sun'iy qoplamlari sport maydoni,yuvinish xonasi hamda 5kvli quyosh batarayeyasi o`rnatish | 401722860302277 092100072021 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 851.0 | 29 205.0 | |
| 5 | 032324297011 | Toshloq tumani 7-umumiy o`rta ta`lim maktabiga sun'iy qoplamlari sport maydoni,yuvinish xonasi va 5kvli quyosh batarayeyasi o`rnatish | 401722860302277 092100072022 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 851.0 | 29 205.0 | |
| 6 | 032301707011 | Toshloq tumani Xonariq MFYda joylashgan Xolmatobod OSHP binosida Reskonstruksiya ishlarini bajarish hamda 10kv Quyosh panelllarini o`rnatish | 401722860302277 072130054004 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 851.0 | 26 315.0 | |
| 7 | 032315362011 | Toshloq tumani 12-umumiy o`rta ta`lim maktabiga sun'iy qoplamlari sport maydoni,yuvinish xonasi hamda 5kvli quyosh batarayeyasi o`rnatish | 401722860302277 092100072026 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 851.0 | 36 477.0 | |
| 8 | 032310415011 | Qumariq MFY Xojiota, So`filar, Farg`ona ko`chalariga 6ta Transformator va 9 kilometr beton simyog`och o`rnatish. | 401722860302277 049805098001 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 861.0 | 1 268.0 | |
| 9 | 032315680011 | Toshloq tumani 8-umumiy o`rta ta`lim maktabiga 6 ta xonadan iborat qo`shimcha o`quv binosi qurish hamda 5kv quyosh batarayeyasi o`rnatish | 401722860302277 092100072024 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 851.0 | 35 181.0 | |

| | | | | | | | | |
|----|--------------|---|---------------------------------|-------------|-------------|----------|----------|--|
| 10 | 032318024011 | Toshloq tumani 2- ixtisoslashtirilgan maktabiga sun'iy qoplamali sport maydoni,yuvinish xonasi hamda 5kv quyosh batareyasi o`rnatish | 401722860302277 092100072025 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 851.0 | 36 427.0 | |
| 11 | 032312266011 | Toshloq tumani Tibbiyot birlashmasiga qarashli Mehnatabod oilaviy shifokorlik punktı binosini ta'mirtalabligi hanmda xom g`ishtdan hashar yo`li bilan qurilganligi sababli Mehnatabod OSHP uchun yangi zamonaviy bino qurish | 401722860302277 072130054003 | 1 360 000.0 | 1 360 000.0 | 65 851.0 | 6 014.0 | |